

Soyaning tezpishar, takroriy ekinga mos yangi navi

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Genetika va o'simliklar eksperimental biologiyasi instituti olimlari tomonidan yaratilgan soyaning "Genetik-1" navi tezpishar bo'lib, takroriy ekinga mos nav hisoblanadi. Soyaning mazkur navi determinant tipda o'suvchi erta tezpishar bo'lib, oqsil miqdori 50 %, yog' miqdori 21-22 %, ayrim navlarga nisbatan navning nishon belgisi pishishi oldidan barglari sarg'ayib to'kiladi. Hosildorligi – 20-25 s/ga.



Soyaning "Genetik-1" navi Davlat reestriga kiritilgan va patentlangan. 2021-yilda Surxondaryo viloyati Jarqo'rg'on tumanida bug'doydan keyin takroriy ekin sifatida ekilib 27 s/ga hosil olindi.

Hozirgi kunda Toshkent viloyati hududida "Genetik-1" soya navining urug'chiligini tashkil etish va ekin maydonini kengaytirish bo'yicha Innovatsion rivojlanish vazirligi bilan hamkorlikda tegishli ishlar olib borilmoqda.